

TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,  
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR  
VA ADABIYOTSHUNOSLIK  
MUAMMOLARI

**MATERIALLAR  
TO'PLAMI  
XIV**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI, QIYOSIY  
TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA  
ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI**

**MATERIALLAR TO‘PLAMI**

**XIV**

**“Durdona” nashriyoti  
Buxoro – 2023**

## **LISONIY TEJAMKORLIKNING AXBOROT IFODASIDAGI ORTIQCHALIKKA MUNOSABATI**

Ma'lumki, tejamkorlik tamoyilining asosida nutqiy faoliyat jarayonida axborotni tinglovchiga tez va aniq yetkazish harakati turadi. Ushbu harakatning samarasi til sohiblarining xotira ko'lami va idrok qobiliyati bilan belgilanadi. Bunday holatda lisoniy tejamkorlik bevosita tildagi ortiqchalikka duch keladi. Masalan, lug'at zahirasi ma'no jihatidan batamom o'xshash birliklar (dubleklar, sinonimlar) mavjud. Ushbu turdagi "boyluk"ni ko'rgan ba'zi tilshunoslar "til haddan ziyod ortiqchalikka ega, u shu bois til egalarining o'zgarib turuvchi ehtiyojlariga tezda va butunlay moslasha olmaydi" qabilidagi xulosa chiqarishgacha borib yetganlar. Bizningcha, frantsuz olimining ushbu xulosasi til tizimining imkoniyatlarini kamsitishdan boshqa narsa emas. Til tabiatan ortiqchalikni bartaraf etish yoki uni chetlab o'tish imkoniyatiga ega. Ortiqchalik esa, haqiqatdan ham tizimga, fikr ifodasiga aniqlik kiritishga to'siq qo'yadi. Shuning bilan birgalikda ortiqchalik til tizimi uchun qonuniy va tabiiy ravishda hosil bo'ladigan hodisadir.

Eng muhimi ortiqchalik ba'zan zarurat tufayli yuzaga kelishi mumkin. Bunday ortiqchalikka K.Cherrining ta'biricha, talaffuz yoki yozuvdagi noaniqliklar hamda til tizimining mukammal emasligi sabab tug'diradi.<sup>1</sup> Aniqlikka intilish esa nutqda ortiqcha elementlar paydo bo'lishiga undaydi. Ortiqchalik qo'shimcha lisoniy belgilarning faollashuviga olib keladi.

Til tizimidagi ortiqchalik faqat tabiatan mavjud bo'lmasdan, balki talab qilinganda so'zlovchining o'zi tomonidan ham hosil qilinishi mumkin. Bu, ayniqsa, uzatilayotgan axborotni alohida ta'kidlash ehtiyoji tug'ilganida yoki kommunikantlarda shuni istaganlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Axborotning ortiqchaligi, bundan tashqari, ba'zan ma'noni ma'lum qilishdagi to'siqni bartaraf etishga ham xizmat qiladi. Biroq ortiqchalikdan foydalanish me'yoriga amal qilish talab qilinadi, aks holda ushbu to'siqning ko'lami haddan ziyod kengayib ketishi kuzatiladi. Demak, ortiqchalikdan voz kechishi amali ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Черри К. Человек и информация. –М.:Связь, 1972. –С.53.

<sup>2</sup> Соколовский Ю.А. Избыточность и отсечении информации как средство нивелирования семантических помех // Слово в языке и речи. –Нальчик, 1982. –С.87-94.

## MATERIALLAR TO‘PLAMI

### XIV

---

Ortiqchalikning yuzaga kelishi to'g'ridan – to'g'ri tejamkorlik tamoyilining

faollashuviga olib keladi. Shu jihatdan ozarbayjon olimi M.I.Yusifovning “tejamkorlik ortiqcha unsurlarning paydo bo'lishi va bartaraf etilishi bilan bog'liq” degan qaydini o'rinli ekanligini aytmoqchimiz. Tejamlilik va ortiqchalilikning o'zaro munosabati boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham e'tirof etilgan.<sup>1</sup>

Ushbu ikki hodisa o'rtasida mavjud bo'lgan aloqani isbotlash niyatida bo'lgan

J.Vandries so'zning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi natijasida ifoda quvvati kamayishi ham tizimdan chiqib ketishiga ishora qiladi. Boshqacha aytganda, so'z kommunikativ qiymatini yo'qotadi, ortiqcha “yuk”ga aylanadi.<sup>2</sup> Bundan ko'rinadiki, olim lisoniy tejamkorlik hodisasining tahlil ko'lamini birmuncha kengaytiradi.

Tejamkorlik va ortiqchalikning o'zaro bog'liqligini e'tirof etgan yana bir tilshunos olimning nazdida, til tizimida sinonimlar sonining o'sib borishi inson ongi doirasida kechadigan lisoniy-tafakkur faoliyatini qiyinlashtiradi va buning natijasida sinonimlar miqdorini kamaytirish harakati boshlanadi. Qo'llanishi qulay bo'lgan sinonimlar boshqa ortiqcha bo'lib qolayotgan birliklarning ma'no xususiyatlarini ifodalay boshlaydi.<sup>3</sup> Olimning mazkur xulosasi ko'pchilik tomonidan aytib kelinayotgan yagona bir tushunchani ifodalovchi shakllar sonining ko'payishi tilning boyligi, ifoda imkoniyatlari kengligini ko'rsatishi haqidagi ilmiy-nazariy g'oyaga teskari ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

A.Martinening fikricha, lisoniy ortiqchalik til tizimining barcha sathlariga xos bo'lib, til mavjudligini belgilovchi kategoriyalar qatoriga kiradi. Tejamkorlik va ortiqchalikning o'zaro munosabati doirasida lisoniy shakllarni tejash harakati amalga oshirilsa, mazmun mundarijasidagi ortiqchalik esa saqlanib qoladi. Mazkur holatga asoslangan A.Martine tejamkorlik va ortiqchalik munosabatini tavsiflashda “struktura” tushunchasiga murojaat qilishni tavsiya etadi.<sup>4</sup> Ko'pchilik tilshunoslar struktura tushunchasini “til tizimidagi munosabatlarni tavsiflash qolipi” sifatida talqin qilishni yoqtirsa, boshqa bir guruhdagilari esa struktura tilning ichki tuzilishida mavjud deb hisoblaydi. A.Martinening nazdida, tilda “struktura” degan narsaning o'zi yo'q va u “tilshunos tomonidan material tasnifini osonlashtirish uchun o'ylab chiqilgan tavsif sxemasidan

---

<sup>1</sup> Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. –Т.:Фан, 1988. -93б.

<sup>2</sup> Вандриес Ж. Язык: Лингвистическое введение в историю. –М.:Соцэкгиз, 1937. –С. 114.

<sup>3</sup> Бурсье Э. Основы романского языкознания. –М.:Изд.во иностр. лит-ры, 1952. –С.271.

<sup>4</sup> Мартине А. О книге «Основы лингвистической теории Луи Ельмслева» // Новое в лингвистике. Вып.1. –М.:Прогресс, 1960. –С.455.

---

boshqa narsa emas”.<sup>1</sup> Shu asnoda struktura tushunchasi vositasida lisoniy hodisalarning asl maqomini belgilash hamda ularning o'zaro aloqasi ko'rinishlarini aniqlash imkoni hosil bo'ladi.

Biroz oldinroq aytilganidek, lisoniy ortiqchalikni bartaraf etish axborot ifodasi qonuniyatlariga zid ravishda kechmasligi kerak. Ushbu harakat me'yoridan ortiq bo'lganida uzatilayotgan xabarning mazmunini tiklash imkoniyati pasayadi. Semiotiklar bu tarzda xavfdan ehtiyot bo'lish lozimligini uqtirib ulgurganlar. J.Pirs ortiqchalikni bartaraf etishda axborotning tinglovchi tushunishi uchun yetarli bo'lishiga ahamiyat berish kerakligini uqtiradi. Faqat shu yo'sinda xabarning mazmunini tiklash mumkin. Yo'l qo'yilgan har qanday xato esa mazmun o'zgarishi va buzilishiga olib keladi.<sup>2</sup>

Demak, lisoniy ortiqchalik o'z me'yoriga ega, unga amal qilmaslik esa muloqot samarasiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Axborot tarkibining lingvodidaktik mohiyatini o'rgangan K.Kramsh nutqiy tuzilma tarkibidan lisoniy belgilarni olib tashlash amalini xabar tushunarli bo'lishi darajasigacha bajarish mumkinligini alohida uqtiradi.<sup>3</sup> Bunga amal qilinmasdan biron bir belgi hech qanday ehtiyojsiz olib tashlansa, mazmunga putur yetishi turgan gap.

***Gadoeva Mavluda Ibragimovna***

ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc).

***Yodgorova Laylo Baxtiyorovna***

Buxoro Davlat universiteti

Lingvistika: ingliz tili yo`nalishi magistranti

## **SOMATIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI**

**Anotatsiya:** Ushbu maqola somatizmlar haqida so`z yuritilib, bosh, soch, ko`z, yurak, qo`l somatizmlarning turli ma`nolarni ifodalashi tahliliga bag`ishlangan.

**Kalit so`zlar:** somatizm, bosh, soch, ko`z, yurak, qo`l, ma`no, ibora

Somatizmlar, inson yoki hayvon tana a`zolarini ifodalovchi so`zlar barcha tillarda mavjud bo`lib, tillarning universal leksik qatlamiga kiradi.

---

<sup>1</sup> Martinet A. A Functional View of Language. –Oxford:Oxford Univ. Press, 1962. –P.4.

<sup>2</sup> Пирс Дж. Символы, сигналы, шумы. Закономерности и процессы передачи информации. – М.:Мир, 1997. –С.79.

<sup>3</sup> Крамш К. Дискурс и культура в обучении иностранному языку // Иностранные языки в школе, –М., 1996. №3. –С.107.

---

**МУНДАРИЖА**

Rasulov Zubaydullo Izomovich, Lisoniy tejamkorlikning axborot ifodasidagi ortiqchalikka munosabati .....	3
Gadoeva Mavluda Ibragimovna, Yodgorova Laylo Baxtiyorovna. Somatizmlarning leksik-semantik tadqiqi .....	5
Вахидова Фотима Саидовна. Зиёрат туризмга оид терминлар лексик-семантик хусусиятлари .....	9
D.I.Xodjayeva, Kosimova Shakhnoza Sharof kizi. Transposition and its influence on the processes of derivation in modern english .....	13
Rakhmatova Mekhriniso, Rakhmonova Jasmina. American prose: analysis of contemporary american literature.....	15
Муҳайё Давлатова. Typology of expressive emotional relations in linguistics .....	17
Tursunov Mirzo Mahmudovich, Jalilov Bahodir Hamzayevich. Ingliz va o‘zbek tillari publisistik matnlarida yangi leksik birliklarining paydo bo‘lishi .....	20
Naydarov Anvar Askarovich, Sattorova Shahlo Shavkatovna. Modallik universal kategoriya sifatida.....	24
Qodirova Aziza Xayrilloevna. Til va nutq semantikasining sinxron tarjimaga oid muammolari va tarjima yo‘llari.....	28
Razoqova Kumush Sadriddinovna. Ingliz tilini o‘qitishda madaniy ongni rivojlantirish.....	31
Ro‘ziyeva N. Urg‘ular bilan bog‘liq konnotativ ma‘nolar.....	34
M.M.Raxmatova, M.Raximova. A review of krashen’s monitor model hypothesis .....	36
Qobilova N.S. N.Barotova. Nutqning odob-axloq buzilishi lingvokologik muammo sifatida.....	43
Qobilova N.S., Ollomurodov Arjun. Zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlarida konseptual metafora va tarjima masalalari.....	46
A.B. Kobilova, Maxtob Axmedova. Ingliz va o‘zbek tilarida perifrazalar siyosiy xoslanishining lingvopragmatik tahlili.....	48
A.B. Kobilova, Dilrabo Ro‘ziyeva. Ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida reklama tili va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	50
Axmedova Sarvinoz Hikmatovna. Ingliz va o‘zbek ertaklarida ko‘makchi obrazlar .....	52
A.B. Kobilova, Gulnoza Bo‘riyeva. Ingliz diskursida perifrizar stilistik vosita sifatida .....	54
M.M.Raxmatova, Aziza Burxonjonova. How communicative competence is taught in secondary schools of Bukhara .....	57